

TO'YLARIMIZ HAQIDAGI O'YLARIMIZ

10

• 2025-yil 10-aprel • № 15


Postda
Ha noсты

TO'YLARIMIZ HAQIDAGI O'YLARIMIZ

Mehmono'st xalqmiz. Elga osh berish, ko'pning duosini olishga bo'lgan intilish milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagiga aylangan. To'ylarga yetkazsin, har kuning to'y bo'lsin, degan tilak har birimizga doimiy hamroh...

Asli ham shunday, to'y – insonlarning ne-ne orzulari, quvonchi, baxt-u shodmonligi bilan qorishib ketgan yaxshi kun. Uning o'ziga xos qonun-qoidalari, ota-bobolardan meros urf-odatlari bor. Buni yaxshi tushungan kishi aslo kam bo'lmaydi. Shunga qarab o'zi, oilasi, xalqi va yurtiga manfaat keltiradigan reja asosida yaxshi kunini o'tkazadi. Ana shu xislati uning ma'naviyatini ko'rsatish barobarida jamiyatni ortidan ergashtirishga ham xizmat qiladi. Biroq keyingi vaqtarda oramizda «to'y to'ydek bo'lsin...», deya fikrlovchilar ushbu marosimiga turfa «yangiliklar» kiritib, azaliy an'analarning «boyib» borayotgani hech birimizga sir emas. Xo'sh, bugun ushbu «tashabbus»lar bizga qanchalik naf yoki ziyon yetkazmoqda? Masalaning o'ylab ko'rildigan tomoni shunda.

Mehmono'st xalqmiz. Elga osh berish, ko'pning duosini olishga bo'lgan intilish milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagiga aylangan. To'ylarga yetkazsin, har kuning to'y bo'lsin, degan tilak har birimizga doimiy hamroh... Asli ham shunday, to'y – insonlarning ne-ne orzulari, quvonchi, baxt-u shodmonligi bilan qorishib ketgan yaxshi kun. Uning o'ziga xos qonun-qoidalari, ota-bobolardan meros urf-odatlari bor. Buni yaxshi tushungan kishi aslo kam bo'lmaydi. Shunga qarab o'zi, oilasi, xalqi va yurtiga manfaat keltiradigan reja asosida yaxshi kunini o'tkazadi. Ana shu xislati uning ma'naviyatini ko'rsatish barobarida jamiyatni ortidan ergashtirishga ham xizmat qiladi. Biroq keyingi vaqtarda oramizda «to'y to'ydek bo'lsin...», deya fikrlovchilar ushbu marosimiga turfa «yangiliklar» kiritib, azaliy an'analarning «boyib» borayotgani hech birimizga sir emas. Xo'sh, bugun ushbu «tashabbus»lar bizga qanchalik naf yoki ziyon yetkazmoqda? Masalaning o'ylab ko'rildigan tomoni shunda.

To'ylardagi isrofgarchiliklarning oldini olish, kimo'zarchilikka barham berish, to'y-u tantanalarni ortiqcha sarf-xarajatlarsiz, ixcham, chiroyli o'tkazish masalasi hatto davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yaxshi bilamiz. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi Kengashlari 2019-yil 14-sentabr kuni «To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni qabul qilgan edi. Qonun bilan teng yuridik kuchga ega bo'lgan mazkur hujjat 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Unda oilaviy tadbirlar belgilangan qat'iy talablar asosida o'tishi belgilab qo'yilgan. Xususan, milliy an'analarga yot, odob-axloq qoidalariiga zid bo'lgan turli shoularni, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan to'ylar, oilaviy

ladik. Chunki yaxshi niyat bilan to'y boshtagan har qanday kishining ko'ngilda «Bir to'y bo'lsinki, ovozasi olamni tutsin», degan o'y va «hoy- u havas» azal-azaldan qon-qonimiza singib ketganda. O'tgan asrda tasvirliga olingan «Mahallada duv-duv gap» filmi qahramoni Oyposhshanning bitta qo'zini o'nta qo'y, deya maqtanishini bix eslangu. Ana shu «havas» ko'pchilki nima-larga yetkalamaydi, deysiz...

Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bundan bir asr muqaddam «To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoydar-dek taraqqiy etarmiz va o'tizimizda, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a

naf keltirishini orzu qilisharmikin? Va bu orzu yo'lida ham xuddi to'y taraddudiga chog'langandek tirishqoqlig-u shahdini namoyon etarmikin hech?! Tilga olgan mavzuimiga bu savollar ostidan nazar tashlasak, qay jihatlarga kulib, qaysinisidan kuyamiz?...

Aytgancha, bugun axborot texnologiyalari rivoji dabdabali to'ylar tasvirlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishdek «odat»ni paydo qildi. Bu tasvirlardagi boylik va hashamatni ko'z-ko'zlozchi udumlar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'satmasligiga ishon-chingiz komilm? Yo'q, albatta. Chunki, to'ya taniqli san'atkorni chorlab, to'yimming dovrug'ini yetti mahallaga doston qilaman, deganlar va ularga ko'r-ko'rona ergashayotganlar qancha. Asli-

...Amakim shunaqa to'y berib elga, Ertangi ovoza gashtini surar. Topgan-tutganini suribir yelga, Eshik panasida bo'zrayib turar.

Onaning ham mushtdek yuragi, butun borlig'i farzandi uchun fido. Ammo ba'zan mahalla-ko'yda yuzlari zahil tortib qolgan ayol, ona o'z salomatligini tiklashni ortga surib, «quidalar oldida izza bo'lmashlik uchun» qizining to'yiga qimmatbaho, sara sarpolar olish ilinjida misqollab pul yig'ayotgani eshitib, beixtiyor ruhga og'riq, mahzunlik cho'kadi... Ko'pincha moddiy manfaatlarni ko'zlab oila qurayotgan yoshlar hech qancha vaqt o'tmasdan «Xarakterimiz mos kelindi», degan vaj bilan ajralib ketayotganligi, ikki o'trada go'daklar tirk yetim bo'lib qolayotganligi ham, afsuski, uchrab turgan achiq haqiqat.

Oramizda «Xursandchilikning nima aybi bor, sizga ne tashvish?», deya uzoqni ko'rmay fikrlaydig'anlar ham yo'q emas. Shunday insonlar kundalik turmushda dabdabali to'y uchun ko'tarilgan



tantanalardan oldingi, tadbir davomidagi va undan keyingi qo'- shimcha rasm-rusumlarni («kuyov navkari», «chorlar», «ota ko'rdi», «sep yoydi», «quda chaqirdi», «kuyov chaqirdi», «kelin chaqirdi», «tog'ora yuborish», «pul sochish» va hokazolarni) o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi qayd etilgan.

Shu o'rinda pandemiya sabab karantin e'lon qilingan vaziyatni ham yodga olaylik. O'sha kezlarda joni ko'ziga ko'ringan odamlarimiz shundoq ham turli marosimlarni bajonidil qisqartirishgani bor gap. Lekin vaziyat iziga tushishi bilanoq yana o'zligimizni yo'qotishni bosh ladik. Chunki yaxshi niyat bilan to'y boshlagan har qanday kishining ko'nglida «Bir to'y bo'lsinki, ovozasi olamni tutsin», degan o'y va «hoy- u havas» azal-azaldan qonqonimizga singib ketganda. O'tgan asrda tasvirga olingan «Mahallada duv-duv gap» filmi qahramoni Oyposhshanining bitta qo'zini o'nta qo'y, deya maqtanishini bir eslang. Ana shu «havas» ko'pchilikni nimalarga yetaklamaydi, deysiz...

Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bundan bir asr muqaddam «To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimizda, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur», deya kelajak avlod taqdiriga qayg'urib, fikr bildirganida qanchalar haq edi. Chunki o'tgan yuz yildan ortiq muddatda ham bu marosim doirasidagi dabdababozlik qisqarish o'rniga «zamonasiga yarasha-da», degan izoh bilan tobora kengayib borayotganiga nima deysiz?

Manbalarda Mahmudxo'ja Behbudiy katta boylik va mansab egasi bo'lishiga qaramay 1909-yil 15-aprelda Maqsud Xo'ja ismli o'g'liga xatna to'yi qilib, 1000 rubldan ham kam pul sarflagani, to'yga ketadigan ortiqcha sarf-xarajat o'rniga Samarcanddag'i kutubxonaga Rossiya va Turkiyadan kitoblar xarid qilib keltirgani qayd etilgan. Bugun dabdabali to'y o'tkazishni katta obro' deb bilganlar va shuning harakatida yelib-yugurayotganlar dilbandining ertangi kuni, kelajagi haqida qay tariqa qayg'uradi? Avlodining davomchilari dunyoga dong taratadigan yetuk olim yoxud adib bo'lishini, yurtga, insoniyatga naf keltirishini orzu qilisharmikin? Va bu orzu yo'lida ham xuddi to'y taraddudiga chog'langandek tirishqoqlig-u shahdini namoyon etarmikin hech?! Tilga olgan mavzuimizga bu savollar ostidan nazar tashlasak, qay jihatlarga kulib, qaysinisidan kuyamiz?..

Aytgancha, bugun axborot texnologiyalari rivoji dabdabali to'ylar tasvirlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishdek «odat»ni paydo qildi. Bu tasvirlardagi boylik va hashamatni ko'z-ko'zlovchi udumlar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'satmasligiga ishonchingiz komilmi? Yo'q, albatta. Chunki, to'yga taniqli san'atkorlarni chorlab, to'yimning dovrug'ini yetti mahallaga doston qilaman, deganlar va ularga ko'r-ko'rona ergashayotganlar qancha. Aslida-ku orzuga ayb yo'q. Hech kim xursandchilik kunining boshqanikidan kam bo'lishini istamaydi. Xalqimiz ruhiyatidagi bu istakni, eng qizig'i, san'atkorlar ham biladi. Va mana shu bilgi bugun ularning tegirmoniga suv quyayotganday... Negaki, to'ylardagi dabdabalar, san'atkorlarning narxnavosi bugun tez-tez haqli munozaralarga sabab bo'lyapti. Va bu mavzumiz doirasidagi katta bir muammo ekanligi ham rost.

Bu yorug' olamda farzandining taqdiriga ko'p qayg'uradigan, nuridiydasi uchun kerak bo'lsa, jonini-da ayamaydigan inson ota-onasiga bo'ladi. Ota oilaning suyanchi, ishonchi, u farzandlarining xohish-istiklarini ko'ngli qadar qadrlab bajaradi, biroq bu shunchaki orzu-havasga uchish bo'lsa-chi?! Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning to'yda dabdababozlikka berilib, oqibatda qanday holga tushib qolgan kishi haqidagi -satrlari xayoldan o'tadi:

**...Amakim shunaqa to'y berib elga,
Ertangi ovoza gashtini surar.
Topgan-tutganinisovurib yelga,
Eshik panasida bo'zrayib turar.**

Onaning ham mushtdek yuragi, butun borlig'i farzandi uchun fido. Ammo ba'zan mahalla-ko'yda yuzlari zahil tortib qolgan ayol, ona o'z salomatligini tiklashni ortga surib, «qudalar oldida izza bo'lmashlik uchun» qizining to'yiga qimmatbaho, sara sarpolar olish ilinjida misqollab pul yig'ayotganini eshitib, beixtiyor ruhga og'riq, mahzunlik cho'kadi... Ko'pincha moddiy manfaatlarni ko'zlab oila qurayotgan yoshlar hech qancha vaqt o'tmasdan «Xarakterimiz mos kelmadi», degan vaj bilan ajralib ketayotganligi, ikki o'rtada go'daklar tirik yetim bo'lib qolayotganligi ham, afsuski, uchrab turgan achchiq haqiqat.

Oramizda «Xursandchilikning nima aybi bor, sizga ne tashvish?», deya uzoqni ko'rmay fikrlaydiganlar ham yo'q emas. Shunday insonlar kundalik turmushda dabdabali to'y uchun ko'tarilgan qarz-qavola oilalarda turli notinchliklarga sabab bo'layotganini ko'rmayaptimi? Ayniqsa, yangi hayot boshlagan yoshlar kelajak rejalarini tuzish, baxtdan sarmast bo'lish o'rniga turli ko'ngilsizliklarga duch ketayotgani bilan bog'liq misollar ko'p. Shunga qaramay, «To'kis o'tkazish kerak» degan fikrga mahkam yopishib olamiz-u, ma'-naviy o'pirilishlar haqida o'yash xayolimizdan qochadi. Bu yoshlarning o'z o'rnida kattalarning ham moddiyatni birlamchi sanab, oila, nikoh, farzand tarbiyasidek muqaddas burch oldida mas'uliyat hissini yo'qotishi emasmi?

Xullas, to'ylarimiz haqidagi o'ylarimiz xo'p va ko'p, qolaversa, tinchlik bermaydigan dardga o'xshaydi. Qachonki, uni davolasak, ko'ngil xotirjam bo'ladi. Ammo bu og'riq birgina kishining emas, butun jamiyatniki bo'lsa-chi? Bunga butun el birgalikda kurashib, shifo axtarmasa, u gazak olib ko'paysa ko'payadi-ki, aslo ortga chekinmaydi. Qachongacha «To'y qilsak, uni el qatori o'tkazamiz», deymiz. Axir el kim? O'zimiz emasmi? Demak, odatlarning yaxshisi ham, ko'p xarji ham o'zimizniki. Keling, bunda birbirimizga yaxshi ma'noda ko'zgu bo'lib, xayrli amallarga bosh qo'shsak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA.

16/2025-мавзу

ТҮЙЛАРИМИЗ ҲАҚИДАГИ ҮЙЛАРИМИЗ

Меҳмондўст халқмиз. Элга ош бериш, қўпнинг дуосини олишга бўлган интилиш миллий қадриятларимизнинг бир бўлагига айланган. Тўйларга етказсин, ҳар кунинг тўй бўлсин, деган тилак ҳар биримизга доимий ҳамроҳ. Асли ҳам шундай, тўй – инсонларнинг не-не орзулари, қувончи, баҳту шодмонлиги билан қоришиб кетган яхши кун. Унинг ўзига хос қонун-қоидалари, ота-боболардан мерос урф-одатлари бор. Буни яхши тушунганди киши асло кам бўлмайди. Шунга қараб ўзи, оиласи, халқи ва юртига манфаат келтирадиган режа асосида яхши кунини ўтказади. Ана шу хислати унинг маънавиятини кўрсатиш баробарида жамиятни ортидан эргаштиришга ҳам хизмат қилади. Бироқ кейинги вақтларда орамизда «тўй тўйдек бўлсин...», дея фикрловчилар ушбу маросимга турфа «янгиликлар» киритиб, азалий анъаналарнинг «бойиб» бораётгани ҳеч биримизга сир эмас. Хўш, бугун ушбу «ташаббус»лар бизга қанчалик наф ёки зиён етказмоқда? Масаланинг ўйлаб кўриладиган томони шунда.

Тўйлардаги исрофгарчиларнинг олдини олиш, кимўзарчиликка барҳам бериш, тўю тантаналарни ортиқча сарф-харажатларсиз, ихчам, чиройли ўтказиш масаласи ҳатто давлат сиёсати даражасига кўтарилиганини яхши биламиз. Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатаси Кенгашлари 2019 йил 14-центабр куни «Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги қарорни қабул қилган эди. Қонун билан тенг юридик кучга эга бўлган мазкур хужжат 2020 йил 1 январдан кучга кирди. Унда оилавий тадбирлар белгиланган қатъий талаблар асосида ўтиши белгилаб қўйилган. Хусусан, миллий анъаналарга ёт, одоб-ахлоқ қоидаларига зид бўлган турли шоуларни, ортиқча вақт ва харажат талаб қиладиган тўйлар, оилавий тантаналардан олдинги, тадбир давомидаги ва ундан кейинги қўшимча расм-руsumларни («куёв навкари», «чорлар», «ота кўрди», «сеп ёйди», «қуда чақирди», «куёв чақирди», «келин чақирди», «тоғора юбориш», «пул сочиш» ва ҳоказоларни) ўтказишга йўл қўйилмаслиги қайд этилган.

Шу ўринда пандемия сабаб карантин эълон қилинган вазиятни ҳам ёдга олайлик. Ўша кезларда жони қўзига кўринган одамларимиз шундоқ ҳам турли маросимларни бажонидил қисқартиришгани бор гап. Лекин вазият изига тушиши билан яна ўзлигимизни йўқотишни бош ладик. Чунки яхши ният билан тўй бошлаган ҳар қандай кишининг кўнглида «Бир тўй бўлсинки, овозаси оламни тутсин», деган ўй ва «ҳой- у ҳавас» азал-азалдан қонқонимизга сингиб кетганда. Ўтган асрда тасвирга олинган «Маҳаллада дув-дув гап» фильмим қаҳрамони Ойпошшанинг битта қўзини

ўнта қўй, дея мақтанишини бир эсланг. Ана шу «ҳавас» кўпчиликни нималарга етакламайди, deysiz...

Жадид бобомиз Маҳмудхўжа Беҳбудий бундан бир аср муқаддам «Тўй ва таъзияға сарф қилинатурғон оқчаларимизни биз, туронийлар, илм ва дин йўлиға сарф этсак, анқариб оврупойилардек тарақкий этармиз ва ўзимизда, динимизда обрўй ва ривож топар. Йўқ, ҳозирги ҳолимизға давом этсак, дин ва дунёға зиллат ва мискинатдан бошқа насибамиз бўлмайдур», дея келажак авлод тақдирига қайғуриб, фикр билдирганида қанчалар ҳақ эди. Чунки ўтган юз йилдан ортиқ муддатда ҳам бу маросим доирасидаги дабдабабозлик қисқариш ўрнига «замонасига ярашада», деган изоҳ билан тобора кенгайиб бораётганига нима дейсиз?

Манбаларда Маҳмудхўжа Беҳбудий катта бойлик ва мансаб эгаси бўлишига қарамай 1909 йил 15 апрелда Мақсад Хўжа исмли ўғлига хатна тўйи қилиб, 1000 рублдан ҳам кам пул сарфлагани, тўйга кетадиган ортиқча сарф-харажат ўрнига Самарқанддаги кутубхонага Россия ва Туркиядан китоблар харид қилиб келтиргани қайд этилган. Бугун дабдабали тўй ўтказишни катта обрў деб билганлар ва шунинг ҳаракатида елиб-югуратганлар дилбандининг эртанги куни, келажаги ҳақида қай тариқа қайғуради? Авлодининг давомчилари дунёга донг таратадиган етук олим ёхуд адаб бўлишини, юртга, инсониятга наф келтиришини орзу қилишармикин? Ва бу орзу йўлида ҳам худди тўй тараддудига чоғлангандек тиришқоқлигу шаҳдини намоён этармикин ҳеч?! Тилга олган мавзумизга бу саволлар остидан назар ташласак, қай жиҳатларга кулиб, қайсинисидан куямиз?..

Айтганча, бугун аҳборот технологиялари ривожи дабдабали тўйлар тасвирларини ижтимоий тармоқларга жойлаштиришдек «одат»ни пайдо қилди. Бу тасвирлардаги бойлик ва ҳашаматни кўз-кўзловчи удумлар ёшлар маънавиятига салбий таъсир кўсатмаслигига ишончингиз комилми? Йўқ, албатта. Чунки, тўйга таниқли санъаткорларни чорлаб, тўйимнинг довруғини етти маҳаллага достон қиласман, деганлар ва уларга кўр-курона эргашаётганлар қанча. Аслидаку орзуга айб йўқ. Ҳеч ким хурсандчилик кунининг бошқаникidan кам бўлишини истамайди. Халқимиз руҳиятидаги бу истакни, энг қизифи, санъаткорлар ҳам билади. Ва мана шу билги бугун уларнинг тегирмонига сув қуяётгандай... Негаки, тўйлардаги дабдабалар, санъаткорларнинг нарх-навоси бугун тез-тез ҳақли мунозараларга сабаб бўляпти. Ва бу мавзумиз доирасидаги катта бир муаммо эканлиги ҳам рост.

Бу ёруғ оламда фарзандининг тақдирига кўп қайғурадиган, нуридийдаси учун керак бўлса, жонинида аямайдиган инсон ота-она бўлади. Ота оиланинг суюнчи, ишончи, у фарзандларининг хоҳиш-истакларини кўнгли қадар қадрлаб бажаради, бироқ бу шунчаки орзу-

ҳавасга учиш бўлсачи?! Шу ўринда Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджоннинг тўйда дабдабабозликка берилиб, оқибатда қандай ҳолга тушиб қолган киши ҳақидаги тасарлари хаёлдан ўтади:

**...Амаким шунаقا тўй бериб элга,
Эртанги овоза гаштини сурар.
Топган-тутганини совуриб елга,
Эшик панасида бўзрайиб турар.**

Онанинг ҳам муштдек юраги, бутун борлиғи фарзанди учун фидо. Аммо баъзан маҳалла-кўйда юзлари заҳил тортиб қолган аёл, она ўз саломатлигини тиклашни ортга суриб, «қудалар олдида изза бўлмаслик учун» қизининг тўйига қимматбаҳо, сара сарполар олиш илинжида мисқоллаб пул йиғаётганини эшитиб, беихтиёр руҳга оғриқ, маҳзунлик cho'kadi... Кўпинча моддий манфаатларни кўзлаб оила қураётган ёшлар ҳеч қанча вақт ўтмасдан «Характеримиз мос келмади», деган важ билан ажralиб кетаётганлиги, икки ўртада гўдаклар тирик етим бўлиб қолаётганлиги ҳам, афсуски, учраб турган аччиқ ҳакиқат.

Орамизда «Хурсандчиликнинг нима айби бор, сизга не ташвиш?», дея узоқни кўрмай фикрлайдиганлар ҳам йўқ эмас. Шундай инсонлар кундалик турмушда дабдабали тўй учун кўтарилиган қарз-қавола оилаларда турли нотинчликларга сабаб бўлаётганини кўрмаяптими? Айниқса, янги ҳаёт бошлаган ёшлар келажак режаларини тузиш, баҳтдан сармаст бўлиш ўрнига турли кўнгилсизликларга дуч келаётгани билан боғлиқ мисоллар кўп. Шунга қарамай, «Тўқис ўтказиш керак» деган фикрга маҳкам ёпишиб оламизу, ма'- навий ўпирилишлар ҳақида ўйлаш хаёлимиздан қочади. Бу ёшларнинг ўз ўрнида катталарнинг ҳам моддиятни бирламчи санаб, оила, никоҳ, фарзанд тарбиясидек муқаддас бурч олдида масъулият ҳиссини йўқотиши эмасми?

Хуллас, тўйларимиз ҳақидаги ўйларимиз хўп ва кўп, қолаверса, тинчлик бермайдиган дардга ўхшайди. Қачонки, уни даволасак, кўнгил хотиржам бўлади. Аммо бу оғриқ биргина кишининг эмас, бутун жамиятники бўлсачи? Бунга бутун эл биргаликда курашиб, шифо ахтармаса, у газак олиб кўпайса кўпаяди-ки, асло ортга чекинмайди. Қачонгача «Тўй қилсак, уни эл қатори ўтказамиз», деймиз. Ахир эл ким? Ўзимиз эмасми? Демак, одатларнинг яхшиси ҳам, кўп харжи ҳам ўзимизники. Келинг, бунда бирбиримизга яхши маънода кўзгу бўлиб, хайрли амалларга бош қўшсак, нур устига аъло нур бўлар эди.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА.